

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD 03/30.12.2019 Psi.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**RUSTAMOV SHAVKAT SHUXRAT O'GLI**

**TALABALAR INNOVATSION KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
психологических наук (DSc)**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of  
Psychological Sciences (DSc)**

**Rustamov Shavkat Shuxrat o'g'li**

Talabalar innovatsion kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari ..... 3

**Рустамов Шавкат Шухрат угли**

Педагогико-психологические основы развития инновационной компетентности студентов.....33

**Rustamov Shavkat Shuxrat ugli**

Pedagogical and psychological basis for development of innovative competency of students .....67

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....72

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD 03/30.12.2019 Psi.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**RUSTAMOV SHAVKAT SHUXRAT O'GLI**

**TALABALAR INNOVATSION KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/P142 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** Atabayeva Nargis Batirovna  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:** Jabborov Xazrat Xuseynovich  
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

G'ofurov Azizbek Umarjonovich  
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Qobulov Qosimboy Pirjonovich  
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent


**Yetakchi tashkilot:** Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi Phd.03/30.12.2019.Psi.72.06 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2024 yil «7» noyabr kuni soat 13<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-57; e-mail: [buxdu.rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu.rektor@buxdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (01535 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «23» oktyabr da tarqatildi.

(2024-yil «23» oktyabr da 31 raqamli reestr bayonnomasi.)

  
A.M. Nazarov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

F.F. Ganjiyev  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc),  
dotsent

A.A. Xuseynova  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari  
doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda shaxs innovatsion kompetentligi shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni diagnostika qilish, ilmiy ishlanma va innovatsion g'oyalarni ishlab chiqarishga tadbqiq etish, innovator shaxslarni qo'llab-quvvatlashning psixologik mexanizmlarini takomillashtirish, kreativ fikrlovchi, innovativ xususiyatlarga ega bo'lgan iqtidorli, izlanuvchan va ijodkor talabalarning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan psixologik tamoyillarni optimallashtirishning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyoning yetakchi ta'lim muassasalarida, jumladan Amerika Psixologlar Assotsiatsiyasi – APA (American Psychological Association)<sup>1</sup> tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, talabalarda innovatsion kompetentlikning rivojlanishida 26% rahbar, 20% o'z ustida doimiy ishlash, 13% qo'shimcha ta'lim olishga moyillik bilan bir qatorda 18% yangi faoliyat turi bilan shug'ullanishdagi qo'rquvlar, 15% dangasalik hamda 8% stereotiplarni yengib o'tish bilan bog'liq jihatlar muhim psixologik determinantlar sifatida ajratib ko'rsatilgan. Yuqoridagi statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda talabalarni innovatsion kompetentligini rivojlantirish usullarini tadqiq etish dolzarb muammolar bo'lib qolmoqda.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarida shaxs tafakkuri, kreativligi, hissiy-emotsional holati, intellektual salohiyati va talabalarning innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish, shaxsdagi innovativ xususiyatlarni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish yoshlarda o'z g'oyalarni amaliyotga tadbqiq qilishdagi ijtimoiy dadillik va faollikni kuchaytirishning individual tipologik xususiyatlar bilan bog'liq jihatlarining konseptual asoslarini ishlab chiqish bo'yicha empirik tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda Xalqaro psixologiya fanlari ittifoqi – IUPsyS (International Union of Psychological Science)<sup>2</sup>, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan Kornel universiteti va Xalqaro biznes maktabi (INSEAD) bilan hamkorlikda chop etiladigan Global innovatsiyalar indeksi (GII) hisobotida keltiriladigan dunyo davlatlarining innovatsion salohiyati va innovatsion ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha yillik reytingi talablariga muvofiq innovator, innovatsion g'oyalarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, ularning innovativ xususiyatlari va kompetentligini oshirish, innovatsion kompetentlikni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi obyektiv va subyektiv omillarni differentsiatsiyalash, innovatsion kompetentligini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda<sup>3</sup>.

Respublikamizda so'nggi yillarda innovatsion, tanqidiy, ratsional, kreativ, mantiqiy hamda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, ularni har tomonlama iqtidorini ro'yobga chiqarishning zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilmoqda. «...Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga

<sup>1</sup> <https://www.apa.org/about>.

<sup>2</sup> <https://www.iupsys.net/> UPsyS Statement on Conflict in Eastern Europe.

<sup>3</sup> <https://gtmarket.ru/ratings/global-innovation-index>

sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash ishida... yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish... », Global innovatsion indeks (GII) reytingida innovatsion faoliyatni 2026 yilgacha 30 pog'onaga ko'tarish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada, mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi sifatida tarbiyalash, mustaqil fikrlaydigan, innovatsion kompetentlikka ega kadrlar tayyorlash jarayonini sifat bosqichiga ko'tarish, talabalarning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son «2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son »O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son «Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida», 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonlarida, 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son «Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», Qarorlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 222-son «Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 12-yanvardagi 24-son «Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlarida hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamlı strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

#### **Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>4</sup>.**

Talabalar innovatsion kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida, jumladan: Kaliforniya universiteti (AQSH), Stenford universiteti (AQSH), Manchester universiteti (Buyuk Britaniya), Amerika Psixologlar Assotsiatsiyasi (AQSH), Bergich Universiteti (Germaniya), Melburn Universiteti (Avstraliya), National University of Singapore (Singapur), Seoul of National University (Janubiy

---

<sup>4</sup> <https://www.universityofcalifornia.edu>, [www.stanford.edu](http://www.stanford.edu), [www.manchester.ac.uk](http://www.manchester.ac.uk), <https://www.apa.org>, [www.uni-wuppertal](http://www.uni-wuppertal), [www.unimelb.edu.au](http://www.unimelb.edu.au), <https://nus.edu.sg>, <https://en.snu.ac.kr>, <https://www.sorbonne-universite.fr/en>, [msu.ru](http://msu.ru).

Koreya), Sorbonna universiteti (Fransiya), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya) larida olib borilmoqda.

Jahonda talabalar innovatsion kompetentligini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: talabalarni ijodkorlik xususiyatlariga ta'sir qiluvchi omillarni ta'lim yo'nalishiga mos ravishda differensial diagnostika qilish mexanizmlari takomillashtirilgan (Kaliforniya universiteti, AQSH); talabalarning muvaffaqiyatga intilishi va innovatsion faollik orasidagi bog'liqlik neyrobiologik asoslari tadqiq etilgan (Stenford universiteti, AQSH); psixodiagnostik usullar orqali talabalardagi kreativlik sifatlarini aniqlashning ilmiy-nazariy asoslari yaratilgan (Manchester universiteti, Buyuk Britaniya); talabalardagi o'quv va ilmiy faoliyat motivatsiyasini oshirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirishning kognitiv determinantlarini differensial diagnostik mexanizmlari takomillashtirilgan (Amerika Psixologlar Assotsiatsiyasi, AQSH); talabalardagi tanqidiy fikrlashning innovatsion g'oyalarni amalga oshirishga ta'sirining xulqiy patternlarini integrativ tizimi ochib berilgan (Bergich Universiteti, Germaniya); konvergent va divergent fikrlashni kuchaytirish moduli tizimi ishlab chiqilgan (Melburn Universiteti, Avstraliya); talabalardagi tafakkur uslubining innovatsion kompetentlikka ta'sirini yoshga oid geteroxronlik, senzitivlik qonuniyatlari ochib berilgan va shaxsdagi kreativ tafakkurni rivojlanish dinamikasini tahlil qilishning integrativ mexanizmlari ishlab chiqilgan (National University of Singapore, Singapur); didaktik xarakterdagi axborot texnologiyalarini kundalik turmushga tadbiq etish ta'sirida shaxs innovatsion fikrlashini va kreativ tafakkurni rivojlantirishning kognitiv xususiyatlari tadqiq etilgan (Seoul of National University, Janubiy Koreya); shaxs innovatsion kompetentligini individual refleksiyaga bog'liq jihatlarining ijtimoiy determinantlari tizimlashtirilgan (Sorbonna universiteti, Fransiya); talabalarni innovatsion faoliyatga zamonaviy raqamli texnologiyalar vositasida yo'naltirish tizimi yaratilgan (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi).

Jahonda ilm-fan kashfiyotlarni rag'batlantirish shaxs kreativ tafakkuri, ilmiy dunyoqarashi, innovatsion kompetentligini individual xususiyatlarga bog'liq holda rivojlantirishdagi psixologik muammolarni amaliy yechimini topish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, oliy ta'lim muassasasi talabalarida innovatsion kompetentlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash orqali yangicha zamonaviy psixologik usullarni taklif etish, shaxsning individual-tipologik, hissiy-emotsional holatlari, intellektual xususiyatlari asosida ularning innovatsion kompetentligining rivojlanish dinamikasini prognozlash imkonini beruvchi usullarni tadqiq etish orqali psixodiagnostik metodikalarning pedagogik-psixologik jihatlarini takomillashtirish shular jumlasidandir.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimiz olimlari tomonidan «innovatsion kompetentlik» muammosi alohida psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida tadqiq etilmagan bo'lsa-da, shaxs o'quv va ilmiy, innovatsion faoliyatlarining psixologik xususiyatlari, innovatsion tafakkurning rivojlanishi masalalari B.S.Abdullayeva, M.G.Davletshin, K.A.Farfiyeva, G.N.Ibragimova, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, A.M.Nazarov, A.I.Saitqosimov, O'.U.Shukurova,

F.A.Choriyev, E.G'.G'oziyev va boshqalarning<sup>5</sup> ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.B.Brushlinskiy, L.S.Vigotskiy, P.Y.Galperin, V.P.Deliya, D.A.Leontyev, A.B.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, I.V.Sinisina va boshqalar<sup>6</sup> tomonidan talabalarining innovatsion fikrlashi, kreativ tafakkuri masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy psixolog olimlardan Z.Freyd, J.Gilford, R.E.Fansher, Y.Fromm, N.Kogan, R.Plutchik, U.Neisser, W.Sshneider, S.Spearman, L.F.Xiggs, M.A.Wollah va boshqalar<sup>7</sup> tomonidan ilmiy tafakkur, konvergent, divergent fikrlash, kognitiv jarayonlar, innovatsion faoliyat rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsion tadqiqot Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasidagi PZ-202005236-raqamli «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2021-2022 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** talabalar innovatsion kompetentligini

---

<sup>5</sup> Abdullayeva B.S. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari: Monografiya. – T.: «Bookmany print» nashriyoti, 2021 y. – 162 b.; Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'quvchisining psixologiyasi. T., O'zbekiston. - 30 bet.; Farfiyeva K.A. O'spirinlarda ilmiy-innovatsion tafakkur shakllanishining ijtimoiy-psixologik vositalari: psixol.f.d. disser avtoreferati: 19.00.05. – T., TDPU 2022.68 b.; Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: psixol.f.n. disser avtoreferati: 13.00.01. –T., TDPU 2017.39 b.; Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. -T.: Sharq, 2000.; Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix.f.dok.dis. - T., 2005. - 391 b.; Nazarov A.M. Talabalar ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik barqarorligi. Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati 19.00.06. Toshkent -2022. 67 b.; Saitqosimov A.I. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish qonuniyatlari // Falsafa fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dis. avtoreferati. – Samarqand, 2019. - 61 b.; Shukurova O'.U. Talabalarni innovatsion faoliyatga yo'nalganligining ijtimoiy-psixologik jihatlari: psixol.f.n. disser avtoreferati: 19.00.05. – T., TDPU 2022.57 b.; Choriyev F.A. Talabalarda kreativ tafakkur diagnostikasi: psixol.f.d. disser avtoreferati: 19.00.01. – T., O'ZMU 2021.50 b.; Foziev Э.Ф. Тафккур психологияси. Ўқув қўлланма - Т.: Ўқитувчи, 1990. – 183 б.

<sup>6</sup> Абульханова-Славская К.А. Социальное мышление личности: проблемы и стратегии мышления // Психологический журнал. - 1994. № 4. - С. 35–39; Брушлинский А.В. Развитие творческого мышления у учащихся. - М., 1994; Выготский Л.С. Психология развития человека. - М.: Изд-во Смысл; 2005. - 665с.; Гальперин П.Я. Психология творческого мышления // Вопросы психологии. 1982 № 5. Делия В.П. Инновационное мышление в XXI веке. Монография / В.П.Делия. - Балашиха: Де-По. 2011. -228 с.; Леонтьев А.Н. Проблема деятельности в психологии. Вопросы философии. - 1972. - № 9. - С.96-109; Петровский А.В. Личность. Деятельность. Коллектив. - М.: Знание, 1982. - 255 с.; Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - В 2-х т. - Т. 1. - М.: Педагогика, 1989. - 485 с.; Синицына Э. В. Психофизиологические характеристики учебной мотивации студентов: Дис. ... канд. психол. наук: 19.00.02: Ростов н/Д, 2004. - 276 с.

<sup>7</sup> Фрейд З. Введение в психоанализ: Лекции. М.: Наука, 1991.- 456 с. Dodd D. H. White R. M. Cognition: Mental structure and processes. Boston: Allyn and Bacon, Inc. 1980.; Guilford J.T. The ature of Human intelligence. N.Y.: McGraw-Hills, 1967. 538 p. 9.; Fancher R.E. The intelligence men: Makersot the IQ controversy. N.Y. Norton, 1985.; 163. Фромм Э. Автоматический конформизм. / В кн.: История зарубежной психологии (30 -60-е г.г. 20 в.) - М.: Изд - во МГУ, 1986. - С. 24-30; Spearman C. The abilities of man. N. Y., 1927.; Wollach M.A., Kogan N.A new look of the creativity - intelligence distinction. J. of Personality. 1965. V. 33. № 3. P. 348-369.; 212. Plutchik R., Kellermann H., Conte H.R. A structural theory of ego defences and emotions //Isard C. E. (ed.) Emotions in personality and psychopathology. N.Y.: Plenum, 1979. – P. 229-257.; Neisser U. etc. Intelligence: Knowns and Unknowns American Psychologist. 1996. V. 51. № 2. P. 77-101.; Schneider W. Acquiring expertise: Determinants of exceptional perfomance. In: International handbook of Research and Development of Giftedness and Talent. Oxford: Pergamon. 1990. P. 311-324.; Spearman C. The abilities of man. N. Y., 1927.; Higgins L. F. (1996) A Comparison of Scales for Assessing Personal Creativity in IS / L. F. Higgins // Proceedings of the 29th Annual Hawaii International Conference on System Sciences. - 1996. - pp. 13-19.; Wollach M.A., Kogan N.A new look of the creativity - intelligence distinction. J. of Personality. 1965. V. 33. № 3. - P. 348-369.

rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslarini aniqlash va uni ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

talabalarining innovatsion kompetentligini rivojlanishida ustuvor xarakterga ega omillarni aniqlash;

talabalarining innovatsion kompetentligini shaxs innovativ xususiyatlarining novatsion faoliyatga psixologik tayyorlik bilan uyg'un namoyon bo'lishiga bog'liq ekanligini ochib berish;

talabalarining innovatsion kompetentligini rivojlantirishda tafakkur uslubining ahamiyatini tadqiq qilish;

talabalarining innovatsion kompetentligini rivojlantirishda xulq-atvorda o'zini o'zi boshqarish jihatlarini ahamiyatini aniqlash;

talabalarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish modeli va dasturini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida talabalar innovatsion kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari belgilangan bo'lib, tadqiqotga Buxoro davlat universitetidan 180 nafar, Qarshi davlat universitetidan 140 nafar hamda Navoiy davlat pedagogika institutidan 70 nafar, jami, 390 nafar talabalar ya'ni respondent sifatida jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** talabalar innovatsion kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat metodlaridan, shuningdek, N.M.Lebedeva va A.N.Tatarkolarning «Shaxsning innovatsion xususiyati va o'z-o'zini baholash darajasini aniqlash», V.E.Klochko va O.M.Krasnoryadsevalarning «Innovatsion faoliyatga psixologik tayyorlik», A.A.Alekseyeva va L.A.Gromovalarning «Tafakkur uslubini aniqlash», V.I.Morosanovanning «Xulq-atvorni o'z-o'zini boshqarish uslubi» hamda hammualliflikda (N.B.Atabayeva; Sh.Sh.Rustamov) ishlab chiqilgan «Talabalarda innovatsion kompetentlik darajasini aniqlash» so'rovnomalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

talabalarining innovatsion kompetentligini rivojlanishida ilmiy g'oyalarni ilgari surishdagi tashabbuskorlik, tasavvur qilish qobiliyatining evrestik transduksiya, g'oyaviy transformatsiya, fikrlarni taqdim qilishdagi obrazlar assotsiatsiyasi va ularning o'zaro semantik ta'sirini dinamik xususiyatlariga ko'ra, «tasavvur qilish qobiliyati» va «amaliy fikrlash uslubi»ning ustuvor xarakterga ega ekanligi dalillangan;

talabalarining innovatsion kompetentligi muvaffaqiyatga intilishdagi tavakkalchilikka moyillik tashabbuskorlik va novatsiyani talab qiladigan faollikni afzal ko'rish bilan determinatsiyalashganligi tufayli shaxs innovativ xususiyatlarining novatsion faoliyatga psixologik tayyorlik bilan uyg'un namoyon bo'lishiga bog'liq ekanligi asoslangan;

talabalarining innovatsion kompetentligini rivojlantirishda idealistik va analitik fikrlash kreativ g'oyalarning kelajakka yo'nalganligini, sintetik fikrlash esa

qarashlardagi ijodiylikni ortishiga olib kelganligi tufayli tafakkur uslubi muhim psixologik omil ekanligi asoslangan;

talabalarning innovatsion kompetentligini rivojlantirishda «ijodkorlik» va «kelajakka yoʻnalganlik» sifatlari rejalashtirish» hamda «mustaqillik» uslubi bilan determinatsiyalashganligiga asoslanib shaxs innovatsion xususiyatlarini xulq-atvorda oʻzini oʻzi boshqarish jihatlarida integrativ namoyon boʻlishini taʼminlash muhimligi aniqlangan;

talabalarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish modeli shaxsning intellektual hislari mustaqil fikr yuritish, original gʻoyalarni idrok qilishdagi senzitivlik, axborotlar bilan ishlashdagi kreativlik sifatlarini shakllantirib, novatsion faoliyatga psixologik tayyorlikni ortishiga olib kelganligi tufayli «ijodkorlik», «amaliy fikrlash uslubi», «moslashuvchanlik», «kelajakka yoʻnalganlik» mezonlarini kiritish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

talabalarning innovatsion faoliyatga tayyorlik darajasini kreativ fikrlashda ifodalanishiga asoslanib, innovatsion kompetentlikni diagnostika qilish soʻrovnomasi ishlab chiqilgan;

innovatsion kompetentlikni tafakkur uslubi va yosh xususiyatlari bilan bogʻliq jihatlar va psixologik mezonlari taklif etilgan;

talabalardagi oʻz hissiyotlari, gʻoyalari, xatti-harakatlarini adekvat boshqara olish, oʻzini-oʻzi tartibga solish jihatlariga muvofiq innovatsion kompetentlikni rivojlantirishga taʼsir etuvchi omillar differentsiatsiyasi taklif etilgan;

talabalarning innovatsion kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik dasturi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qoʻyilganligi; xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, maʼlumotlarning reprezentativligi; empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan koʻrsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Exsel», «SPSS 24.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi; olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular talabalarning oʻquv faoliyati davomida innovatsion kompetentligini rivojlantirishning individual, ijtimoiy, pedagogik omillarga bogʻliq jihatlar haqidagi ilmiy tasavvurlarni boyitadi va muayyan konseptual nazariyasini shakllanishiga xizmat qiliadi. Shuningdek, tadqiqotdan olingan innovatsion kompetentlikni tashxis qilish mezonlari va uning kognitiv strukturaviy tuzilishiga oid ilmiy xulosalardan pedagogika va psixologiya taʼlim yoʻnalishlardagi ilmiy tadqiqotlarda manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan maʼlumotlardan oliy taʼlim muassasalarining oʻquv faoliyati va taʼlim sifati samaradorligini oshirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish boʻyicha oʻziga xos psixologik xususiyatlarni tadqiq qiluvchi metodikalarni qoʻllash, talabalar innovatsion kompetentligini rivojlanish qonuniyatlari izohlangan maʼlumotlardan esa - «Kognitiv psixologiya»,

«Intellekt psixologiyasi», «Pedagogik psixologiya» fanlaridan o‘quv qo‘llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug‘atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Talabalar innovatsion kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari yuzasidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

talabalarining innovatsion kompetentligini rivojlanishida ilmiy g‘oyalarni ilgari surishdagi tashabbuskorlik, tasavvur qilish qobiliyatining evristik transduksiya, g‘oyaviy transformatsiya, fikrlarni taqdim qilishdagi obrazlar assotsiatsiyasi va ularning o‘zaro semantik ta‘sirini dinamik xususiyatlariga ko‘ra, «tasavvur qilish qobiliyati» va «amaliy fikrlash uslubi»ning ustuvor xarakterga ega ekanligi dalillanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-avgustdagi PM-179-son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 26-avgustdagi PM-179a-son ma‘lumotnomasi). Natijada talabalarining innovatsion kompetentligini rivojlanishida ustuvor xarakterga ega bo‘lgan omillarni aniqlash imkoniyati yaratilgan;

talabalarining innovatsion kompetentligi muvaffaqiyatga intilishdagi tavakkalchilikka moyillik tashabbuskorlik va novatsiyani talab qiladigan faollikni afzal ko‘rish bilan determinatsiyalashganligi tufayli shaxs innovativ xususiyatlarining novatsion faoliyatga psixologik tayyorlik bilan uyg‘un namoyon bo‘lishiga bog‘liq ekanligi asoslanganligiga oid ma‘lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-avgustdagi PM-179-son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 26-avgustdagi PM-179a-son ma‘lumotnomasi). Natijada talabalarining innovatsion kompetentligini shaxs innovativ xususiyatlarining novatsion faoliyatga psixologik tayyorlik bilan uyg‘un namoyon bo‘lishiga bog‘liq ekanligi ochib berilgan;

talabalarining innovatsion kompetentligini rivojlantirishda idealistik va analitik fikrlash kreativ g‘oyalarning kelajakka yo‘nalganligini, sintetik fikrlash esa qarashlardagi ijodiylikni ortishiga olib kelganligi tufayli tafakkur uslubi muhim psixologik omil ekanligi asoslangan ma‘lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-avgustdagi PM-179-son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 26-avgustdagi PM-179a-son ma‘lumotnomasi). Natijada talabalarining innovatsion kompetentligini rivojlantirishda tafakkur uslubining ahamiyatini tadqiq qilish imkoniyati yaratilgan;

talabalarining innovatsion kompetentligini rivojlantirishda «ijodkorlik» va «kelajakka yo‘nalganlik» sifatleri rejalashtirish» hamda «mustaqillik» uslubi bilan determinatsiyalashganligiga asoslanib shaxs innovatsion xususiyatlarini xulq-atvorda o‘zini o‘zi boshqarish jihatlariga integrativ namoyon bo‘lishini ta‘minlash muhimligi aniqlangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-avgustdagi PM-179-son buyrug‘i

bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 26-avgustdagi PM-179a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning innovatsion kompetentligini rivojlantirishda xulq-atvorda o'zini o'zi boshqarish jihatlarining integrativ xususiyatlari aniqlashtirilgan;

talabalarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish modeli shaxsning intellektual hislari mustaqil fikr yuritish, original g'oyalarni idrok qilishdagi senzitivlik, axborotlar bilan ishlashdagi kreativlik sifatlarini shakllantirib, novatsion faoliyatga psixologik tayyorlikni ortishiga olib kelganligi tufayli «ijodkorlik», «amaliy fikrlash uslubi», «moslashuvchanlik», «kelajakka yo'nalganlik» mezonlarini kiritish asosida takomillashtirilganligiga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-avgustdagi PM-179-son buyrug'i bilan «Psixologik trening asoslari» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 26-avgustdagi PM-179a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish modeli va dasturi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqotning asosiy natijalari bo'yicha 1 ta monografiya, 19 ta ilmiy maqola, shulardan 10 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsion ish kirish, to'rt bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi ilovalarsiz 210 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**» qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zarurati, maqsad va vazifalar belgilangan, metodlar, obyekt va predmet ko'rsatilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tadbiq etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Oliy ta'lim muassasalari talabalarida innovatsion kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida innovatsion kompetentlik fenomeni, uning vazifalari, mexanizmlari, xulq-atvorda namoyon bo'lishi va shakllarini ifodalovchi asosiy nazariy tushunchalarning tahliliy sharhi keltirilgan. Shuningdek, talabalarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish muammolarini o'rganishga doir manbalar tahlil qilingan, ilmiy qarashlar tadqiq etilgan va muammoning psixologik jihatlarini yoritib berilgan.

Mazkur bobda innovatsion kompetentlikni faoliyatni rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar, dunyoning ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan olib borilgan izlanishlarning empirik ma'lumotlari tahlili keltirilgan. Innovatsion kompetentlikni rivojlantirish muammosi o'zbek psixologlaridan

B.S.Abdullayeva, I.G'.Abdullayeva, N.M.Babayeva, M.G.Davletshin, Z.T.Nishonova, A.I.Saitqosimov, E.G'.G'oziyev, K.A.Farfiyeva, A.M.Nazarov, O'.U.Shukurova va boshqalar bilan bir qatorda, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridan V.E.Klochko, O.M.Krasnoryadseva, N.M.Lebedeva, A.N.Tatarko, A.A.Alekseyeva, L.A.Gromova, L.A.Ivanova, V.V.Bobrov, V.A.Bordovskiy, A.A.Orlov, A.I.Nikolayev, S.R.Yagolkovskiy, L.A.Xolodkova, N.A.Sablina, L.A.Saytbagina hamda xorij olimlaridan U.Van Lith, H.Hoppe, A.Y.N.Cheng, E.Szeto, J.Fowler, G.K Lemons, B.Rienties, N.Brouwer, S.Lygo-Baker, S.G.L.Won, M.A.Evans, C.Carey, G.Schnittka va boshqalarning ilmiy izlanishlari tahlili berilgan.

Mazkur bobda, nazariy tahlillarga asoslanib, innovatsion kompetentlikka nisbatan o'z mualliflik ta'rifimiz keltirilgan. Shunga ko'ra, «innovatsion kompetentlik shaxsning ijtimoiy voqelikka yangicha qarashlari singdirilgan innovatsion bilimlari, kreativ g'oyalarini amaliy hayotga proyeksiyalash bilan bog'liq tashabbuskorligi, ijodkorligi bo'lsa, talabalarning innovatsion kompetentligi ta'lim jarayonida o'zi ustida ishlashi, guruhiy faoliyatda kreativligi, fikrlashining mustaqilligini namoyon qilishi orqali jamoadagi ijodiy o'zgarishlarga intilish ko'nikmasidir», - deb izohlanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Talabalarda innovatsion kompetentlikni rivojlantirishning konseptual tamoyillari**» deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda talabalar innovatsion kompetentligi rivojlantirish usullari, talabalarning innovatsion faoliyatga psixologik jihatdan tayyorlash tamoyillari, innovatsion faoliyatning komponentlari, psixologik barqarorlik darajasini aniqlash mezonlari yoritib berilgan. Xususan, motivatsion, tanqidiy fikrlash, operativ tasavvur qilish darajasi, amaliy fikrlash va konvergent fikrlash komponentlarni rivojlantirish orqali talabalarni innovatsion kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari ochib berilgan. Innovatsion kompetentlik talabalarining ijodiy fikrlash, tanqidiy yondashuv va texnik ko'nikmalarni o'zaro birlashtirib, muammolarni hal qilish, yangi g'oyalar ishlab chiqish hamda tez o'zgarayotgan texnologik muhitga moslashish qobiliyatini anglatadi. Shuningdek, mazkur bobda yuqoridagi muammolarni o'rganish va tadqiq qilishga mo'ljallangan innovatsion faoliyat funksiyalari ham bayon etilgan.

Ushbu bobda tadqiqotimiz muammosidan kelib chiqqan holda, talabalarning innovatsion kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladigan omillarni aniqlash tadqiqot maqsadi etib belgilangan. Tadqiqotning ilmiy-nazariy, uslubiy va metodologik vazifalari belgilanib, ularni ketma-ketlikda va bosqichma-bosqich amalga oshirish mexanizmlari bayon etilgan. Shuningdek, tadqiqot obyekti va predmetini aniqlashning metodologik asoslari, qo'llanilgan metodikalar tasnifi, tadqiqotni o'tkazish tartibi, konsepsiya hamda tamoyillar batafsil bayon etilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Talabalar innovatsion kompetentligi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etishning empirik natijalari**» deb nomlangan bo'lib, bunda talabalar innovatsion kompetentlik darajalarini eksperimental o'rganish usullari, kompetentlik darajalarini namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion kompetentlikni rivojlantirishning empirik ko'rsatkichlari keltirilgan.

Biz dissertatsion tadqiqotimiz davomida talabalarning innovatsion kompetentligini aniqlash uchun quyidagi algoritm asosida o'z ilmiy

izlanishlarimizni tashkil etdik:

- talabalardagi innovatsion faoliyatga moyillikni ko'rsatuvchi ustuvor shaxs xususiyatlarni aniqlash;
- talabalarning innovatsion faoliyatga psixologik tayyorligini aniqlab olish;
- talabalarning innovatsion kompetentlik darajasini aniqlash;
- talabalarning innovatsion faoliyatga moyilligini anglatuvchi shaxs xususiyatlarining innovatsion faoliyatga psixologik tayyorgarlik va uning kompetentlik darajasida namoyon bo'lishini aniqlash;
- shaxsning innovatsiyaga moyillik xususiyatlarini tafakkur uslubi hamda o'z-o'zini, xulq-atvorni boshqarish sifatleri bilan bog'liqlik jihatlarini tadqiq qilishdan iborat.

Mazkur algoritm asosida o'z ilmiy izlanishlarimizni olib borar ekanmiz, dastlab N.M.Lebedeva, A.N.Tatarko kabilar tomonidan ishlab chiqilgan «Shaxsning innovatsion xususiyati va o'z-o'zini baholash darajasini aniqlash» so'rovnomasidan olingan natijalarni tahlil qilib chiqamiz. Natijalar 1-jadvalda o'z aksini topgan.

**1-jadval.**

**«Shaxsning innovatsion xususiyati va o'z-o'zini baholash darajasini aniqlash» metodikasi orqali olingan natijalar tahlili (n=390)**

| Shkalalar nomi                            | O'rtacha (M)     |                  | Farqlar |      |
|---|------------------|------------------|---------|------|
|   | 2-bosqich, n=210 | 4-bosqich, n=180 | t       | p    |
| Ijodkorlik                                | 4,3              | 2,1              | -2,2    | 0,05 |
| Muvaffaqiyatga erishishga tavakkal qilish | 2,2              | 4,6              | -2,1    | 0,05 |
| Kelajakka yo'nalganlik                    | 3,2              | 3,7              | -1,4    | 0,10 |

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ .

«Shaxsning innovatsion xususiyati va o'z-o'zini baholash darajasini aniqlash» metodikasi orqali olingan natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, «ijodkorlik» ( $t=-2,2$ ;  $p \leq 0,05$ ) hamda «muvaffaqiyatga erishishga tavakkal qilish» ( $t=-2,1$ ;  $p \leq 0,05$ ) omillarida ahamiyatli farqlar kuzatildi. «Kelajakka yo'nalganlik» ( $t=-1,4$ ;  $p \leq 0,10$ ) omilida esa ishonchli farqlar kuzatilmadi.

Dastlabki, «ijodkorlik» omili 2-bosqich talabalarida yuqori natija qayd etildi ( $t=-2,2$ ;  $p \leq 0,05$ ). Ijodkorlik prinsipial yangi g'oyalarni yaratishga tayyorligi bilan ajralib turadigan shaxsning ijodiy qobiliyati hisoblanadi. Taniqli olim P.Torrensning fikriga ko'ra, ijodkorlik kamchiliklarga yoki qarama-qarshiliklarga nisbatan sezgirlikni oshishi, muammolarni aniqlash bo'yicha harakatlar, farazlarni ilgari surish, gipotezalarni sinash va jarayonni o'zgartirish asosida yechimlarni topish bilan izohlanadi. Oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan 2-bosqich talabalarida mazkur omilning yuqori bo'lishi bevosita ularning universitet to'g'risidagi dastlabki fikrlari bilan bog'liq. Bu esa quyi bosqich talabalarini yuqori bosqich talabalariga nisbatan turli xildagi muammoli vaziyatda to'g'ri yechim topa olishi va har qanday yangilikni yengil qabul qilishlaridan darak beradi. Shuningdek, har qanday yangicha g'oyalarni nafaqat egallashlari balki, bevosita uning ishtirokchisiga aylanishlari mumkinligini ta'minlaydi. Mazkur sifatlar esa ulardagi innovatsion kompetentlikni oshishiga

bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi.

«Muvaffaqiyatga erishishga tavakkal qilish» omilida esa aksincha 4-bosqich talabalari yuqori natijani ko'rsatishdi ( $t=-2,1$ ;  $p\leq 0,05$ ). Mazkur holatni ularning ijtimoiylashuv jarayonlari bilan izohlash mumkin. Bunday tipga mansub shaxslar konstruktiv, ijobiy natijalarga erishishni xohlaydi, ular odatda o'zlariga, qobiliyatga ishonishadi, mas'uliyatli, tashabbuskor va faol, maqsadlarga erishishda qat'iyatlilik, maqsadga muvofiqlik bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, ta'lim olish davomida yuzaga keladigan to'siqlarni yengishning yangi yo'llarini topishga imkon beradi. Shunga muvofiq 2-bosqich talabalarida esa ulardagi mas'uliyat hissining kuchliligi muvaffaqiyatga erishish yo'llari to'g'risida emas, balki bu muvaffaqiyatsizlikdan qochish yo'llari, qaror qabul qilishdagi har tomonlama natijani faraz qila olish, xato qilishdan qo'rqish to'g'risida ko'proq o'ylashlari bilan belgilanadi.

Metodikamizning so'nggi «kelajakka yo'nalganlik» omilida farqlar kuzatilmadi. Demak, har ikkala respondentlar guruhida ta'lim olishdan asosiy maqsad faoliyat samaradorligini oshirish orqali o'z kelajagini qurish, har qanday o'zgarishlarga tayyor turish, maqsadga erishishda qat'iyatlilik, ta'lim davomida o'zlashtirilgan egallagan bilim, ko'nikma va malakani real kasbiy hayotda muvaffaqiyatli tarzda qo'llash imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi omillar innovatsion kompetensiyasining bazaviy komponentlari hisoblanib, talabalarni o'quv faoliyati davomida ta'lim sifatini, yangi g'oyalarni ilgari surish, yangi ishlanmalarni joriy etishga shaxsiy va kasbiy jihatdan tayyorgarliklarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalardagi innovatsion faoliyatga layoqatini keltirib chiqaruvchi shaxsning individual xususiyatlari, psixologik jihatdan tayyorligi bilan uyg'unlashsa «innovatsion kompetentlik»ni yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi. Innovatsion g'oyasi bo'lgan shaxs, o'z qarashlarini amaliyotga tadbiiq etishga tayyor bo'lsa, u ma'lum darajada innovatsion kompetentligini namoyon qila boshlaydi. Shu boisdan, biz talabalarning innovatsion kompetentligini aniqlash uchun psixologik so'rovnoma ishlab chiqdik. Mazkur so'rovnomadani olingan natijalarni 4-guruhga birlashtirib tahlil qildik. Bular fikrlashning tanqidiyligi, tasavvur qilish qobiliyati, amaliy fikrlash uslubi va konvergent fikrlashdan iborat. Bizningcha, mazkur mezonlar talabalarning innovatsion kompetentligini belgilab beradi. Mazkur so'rovnoma natijalari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

## 2-jadval.

### «Talabalarda innovatsion kompetentlik darajasini aniqlash so'rovnomasi» metodika orqali olingan natijalar tahlili (n=390)

| Shkalalar nomi             | O'rtacha (M)        |                     | Farqlar |      |
|----------------------------|---------------------|---------------------|---------|------|
|                            | 2-bosqich,<br>n=210 | 4-bosqich,<br>n=180 | t       | P    |
| Fikrlashning tanqidiyligi  | 7,6                 | 8,8                 | -1,2    | 0,12 |
| Tasavvur qilish qobiliyati | 9,3                 | 6,2                 | -2,9    | 0,05 |
| Amaliy fikrlash uslubi     | 6,0                 | 8,2                 | -2,1    | 0,05 |
| Konvergent fikrlash        | 7,0                 | 7,2                 | -0,7    | 0,19 |

Izoh: \*  $p\leq 0,05$ ; \*\*  $p\leq 0,01$ .

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonining sifati va samaradorligi faqatgina ta'limni tashkil etish shakllari va vositalarigagina emas, balki talabalarining individual xususiyatlariga, emotsional holatlariga bevosita bog'liq. Endi tadqiqotimizda mualliflikda ishlab chiqilgan maxsus so'rovnomamizdan olingan natijalarning dastlabki tahlillarini amalga oshirdik. «Talabalarda innovatsion kompetentlik darajasini aniqlash so'rovnomasi» orqali olingan natijalarga ko'ra, «tasavvur qilish qobiliyati» ( $t=-2,9$ ;  $p\leq 0,05$ ) hamda «amaliy fikrlash uslubi» ( $t=-2,1$ ;  $p\leq 0,05$ ) da statistik farqlar qayd etildi. «Fikrlashning tanqidiyligi» ( $t=-1,2$ ;  $p\leq 0,12$ ) va «konvergent fikrlash» ( $t=-0,7$ ;  $p\leq 0,19$ ) da esa farqlar kuzatilmadi.

So'rovnomamizning dastlabki «fikrlashning tanqidiyligi» omilida har ikkala guruh vakillari o'rtacha qiymatni ko'rsatishdi ( $t=-1,2$ ;  $p\leq 0,12$ ). Bunday toifadagi talabalarda ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va adekvat qarorlar qabul qilish, o'z fikrlarini shakllantirish va o'z dunyoqarashini kengaytirish kabi xususiyatlarini namoyon qildi. Talabalar innovatsion g'oyalarning ijobiy baholanishi yoki tanqid ostiga olinishi mumkinligiga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari lozim. Bu esa ularda kreativlik – tafakkurning moslashuvchanligi, yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyati, ularning maqbulligini asoslay olish va stereotiplarga tanqidiy yondashish qobiliyatining rivojlanganidan darak beradi. Buning uchun ular o'zlariga ishonch bilan ma'lum xulq modelini boshqalarga ziyon yetkazmasdan turib, bajara olishlari talab etiladiki, bu innovatsion faoliyatning madaniy jabhasi sanaladi. Talabalar o'zlarining «Men» siymosini tanqidiy baholay olish bilan birga, o'zgaruvchan hayotiy vaziyatlarda o'zlariga nisbatan adekvat baho berishlari lozim bo'ladi, bu esa ularda refleksivlikni ta'minlashni taqozo etadi.

Metodikamizning navbatdagi «tasavvur qilish qobiliyati» omilida 2-bosqich talabalar yuqori natijani ko'rsatishdi ( $t=-2,9$ ;  $p\leq 0,05$ ). Umuman olganda tasavvur psixologiya fanida insonning tajribasida yaxlit shaklda ilgari sezilmagan yoki umuman sezilmaydigan obyektlarning tasvirlarini, g'oyalarni o'z-o'zidan yaratish yoki ataylab qurish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. 2-bosqich talabalarida vaziyatni boshqarish va amaliy harakatlarning bevosita aralashuvvisiz muammolarni hal qilish, ta'lim davomida nazariy jihatdan o'zlashtiriladigan ma'lumotlarni amaliy jihatdan ko'ra olish, innovatsion faoliyatning psixologik zamirida obrazlar, ramzlar, ma'nolar, hukmlarning ixtiyoriy assotsiatsiyasi, ularning o'zaro semantik ta'siri mujassamlashtirgan holda yangi obraz va tasavvurlarning yaratish qobiliyati nisbatan yuqori darajada ekanligi dalillandi. «Amaliy fikrlash uslubi» omilida aksincha yuqori kurs talabalar ustunlik qilishdi ( $t=-2,1$ ;  $p\leq 0,05$ ). Bunday omil talabalarda yangi g'oyalarni shakllantirish turli sohadagi muammolarni yechishda va ilmiy farazlarni tasdiqlash jarayonida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari ushbu omil muammolarni aniqlash, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bilan tavsiflanadi, shuningdek, ilmiy farazlar, taxminlarni ilgari surish, muammoning mazmun-mohiyatini tushunish kabi qobiliyatlarida namoyon bo'ladi. Talabalar o'rtasidagi bunday fikrlash uslubi amalda haqiqiy innovatsion o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, bu davrda yangi g'oyalar, farazlar, taxminlar shakllanadigan va rivojlanadigan muhim davr sanaladi.

So'rovnomamizning so'nggi «konvergent fikrlash» omilida ham farqlar qayd

etilmadi. Demak, har ikkala respondentlar guruhida adekvat qarorlar qabul qilish, yechimni tanlash, muammolarni hal qilishning yangi innovatsion usullarini, strategiyalarini tez va oson topish qobiliyati oʻrtacha darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytishimiz mumkin, talabalarning innovatsion faoliyatdagi kompetentligi eng avvalo, shaxsning xususiyatlari bilan integrativ namoyon boʻlar ekan. Biroq, innovatsion faoliyat talabdan oʻziga xos psixologik tayyorlikni, ijtimoiy dadillikni talab etadi. Agar talabada innovatsion gʻoyalari boʻlgani bilan mazkur gʻoyalarni «qayerda, qanday?» amalga oshirish bilan bogʻliq bilimlar, gʻoyalarni amalga tadbiiq etish uchun psixologik tayyorgarlik boʻlmasa, innovatsion faoliyat mukammal koʻrinishga ega boʻlmaydi. Shu boisdan, biz talabalarning innovatsion faoliyatga psixologik tayyorlik darajasini aniqlab olish uchun V.E.Klochko, O.M.Krasnoryadseva kabilarning «Innovatsion faoliyatga psixologik tayyorlik» soʻrovnomasini oʻtkazib oldik. Natijalar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

### 3-jadval.

#### «Innovatsion faoliyatga psixologik tayyorlik soʻrovnomasi» metodika orqali olingan natijalar tahlili (n=390)

| Shkalalar nomi   | Oʻrtacha (M)        |                     | Farqlar |      |
|--|---------------------|---------------------|---------|------|
|  | 2-bosqich,<br>n=210 | 4-bosqich,<br>n=180 | T       | p    |
| Tashabbuskorlik  | 14,2                | 12,8                | -2,4    | 0,05 |
| Innovatsiyani talab qiladigan faoliyatni afzal koʻrish | 13,1                | 15,0                | -2,2    | 0,05 |
| Oʻzgarishlarga tayyorlik                               | 14,8                | 13,7                | -1,1    | 0,12 |

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ .

Olingan natijalar tahliliga koʻra, «tashabbuskorlik» ( $t=-2,4$ ;  $p \leq 0,05$ ) hamda «innovatsiyani talab qiladigan faoliyatni afzal koʻrish» ( $t=-2,2$ ;  $p \leq 0,05$ ) omillarida ahamiyatli farqlar kuzatildi. Dastlabki, tashabbuskorlik omili 2-bosqich talabalarida ustunlik qildi ( $t=-2,4$ ;  $p \leq 0,05$ ). Mazkur holatni ham ularning yosh davridagi ustuvor ehtiyojlardan, yaʼni tezda jamiyatda ijtimoiy faolligini koʻrsatish orqali mustahkam ijtimoiy mavqega ega boʻlishi bilan izohlash mumkin. Bunday ehtiyojlar talabalikning 1 va 2-bosqichlarida yaqqol namoyon boʻlib, 3- va 4-bosqichlarida biroz past darajada namoyon boʻladi. Shaxs maqsadiga erishish uchun turli-tuman shart-sharoitlarda faoliyat olib boradi. Ana shunday maqsadni anglash va maqsadga erishishning ilgʻor yoʻllarini topishga intilish tashabbuskorlikni talab qiladi. Shunga muvofiq tarzda 2-bosqich talabalarida maqsad yoki xatti-harakatni amalga oshirishda oʻziga xos uslubdan foydalanish, kasbga, sohaga, individual yoki ijtimoiy masalalarga nisbatan eʼtiborlilik darajasi nisbatan yuqori ekanligini anglatadi. Shaxsning tashabbuskorligi va ijodiy imkoniyatlari yuqori boʻlishi bir-biri bilan uzviy aloqador boʻlgan bir qator omillarga bogʻliqdir. Demak, xulosa qiladigan boʻlsak, taʼlim-tarbiya jarayonlarida tashabbuskorlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy tadbirlar barcha oliy taʼlim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda qoʻllanilgan metodikaning navbatdagi «innovatsiyani talab qiladigan faoliyatni afzal koʻrish» omili esa 4-bosqich talabalarida nisbatan yuqori

natijani ko'rsatdi. Bu esa ularning faoliyatida yuqori natijalarga erishishi, innovatsion xulq-atvor namoyon etishi va faoliyatning talab hamda ehtiyojlar asosida yaratiladigan shakllarini qo'llay olish kabi sifatlarning ularda yaxshi shakllanganidan dalolat beradi. Shuningdek, 4-bosqich talabalari kasbiy faoliyatlarida innovatsion usullarni qo'llash orqali kasbiy prestijga ega bo'lish mumkinligi to'grisida ko'proq o'ylaydi.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, talabalarning innovatsion kompetentligini rivojlanishida ilmiy g'oyalarni ilgari surishdagi tashabbuskorlik, fikrlarni taqdim qilishdagi obrazlarning ixtiyoriy assotsiatsiyasidan foydalanish va ularning o'zaro semantik ta'sirini dinamik xususiyatlariga ko'ra, «tasavvur qilish qobiliyati» va «amaliy fikrlash uslubi»ning ustuvor xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Empirik natijalar ko'rsatdiki, talabalardagi innovatsion kompetentlik uchun o'z faoliyatini ongli rejalashtira olishi, kasbiy faoliyati natijalarini adekvat va obyektiv baholay olishi, kasbiy faoliyatida innovatsion g'oyalarni ilgari surishi uchun mazkur faoliyatga sog'lom moslasha olishi va mazkur faoliyatda mustaqil bo'la olishi juda muhim omillar sanaladi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, biz tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida talabalar innovatsion kompetentligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlilini amalga oshirdik.

#### 4-jadval.

#### Talabalarning innovativ shaxs xususiyatlari va innovatsion faoliyatga psixologik tayyorligini o'zaro bog'liqlik jihatlari (n=390)

| Mezonlar                                  | Tashabbuskorlik | Innovatsiyani talab qiladigan faoliyatni afzal ko'rish | O'zgarishlarga tayyorlik |
|---|-----------------|--|--------------------------|
| Ijodkorlik                                | 0,35*           | 0,14   | 0,33*                    |
| Muvaffaqiyatga erishishga tavakkal qilish | 0,42*           | 0,47*  | 0,07                     |
| Kelajakka yo'nalganlik                    | 0,02            | 0,10   | 0,44*                    |

Izoh: \*p<0,05; \*\*p<0,01.

Dastlab, talabalarning innovatsion faoliyatga moyilligini yuzaga keltiruvchi shaxs xususiyatlarining ularning faoliyatga psixologik tayyorlik darajasi bilan bog'liqligini aniqlaymiz. Buning uchun N.M.Lebedeva, A.N.Tatarko tomonidan ishlab chiqilgan «Shaxsning innovatsion xususiyati va o'z-o'zini baholash darajasini aniqlash» hamda V.E.Klochko, O.M.Krasnoryadseva kabilarning «Innovatsion faoliyatga psixologik tayyorlik» so'rovnomalaridan olingan natijalarni o'zaro bog'liqligini tahlil qilamiz.

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, «ijodkorlik» shaxs xususiyatlari «tashabbuskorlik» (r=0,35; p<0,05) va «o'zgarishga tayyorlik» (r=0,33; p<0,05) bilan ijobiy bog'lanishlarga ega ekanligi aniqlandi. Bunda talabalarning ijodkorlik xususiyati ijod bilan shug'ullanish istagi, mustaqil fikrlashi, xato va urinishlarga nisbatan konstruktiv munosabati, ilmiy izlanishga qiziquvchanlik, o'zgalarning kreativ g'oyalaridan ta'sirlanishni o'zida mujassamlashtirib, ularni noaniq vaziyatlarda ham dadil, o'ziga ishonch bilan harakatlanishi, o'z kuchiga ishonchini, doim oldinga intilishini anglatadi. Talabalardagi ijodkorlik sifati tafakkurning teranligi asosida yangi g'oyalarni yaratishga zamin hozirlasa, tashabbuskorlik

mazkur g'oyalarni reallikka joriy etishga, amaliyotda qo'llashga undaydi. Agar talabada kreativ g'oyalar bo'lsa-yu, tashabbuskorlik bo'lmasa, uning g'oyalari faqat g'oyaligicha shaxsning o'y-xayollarida qolib ketadi. Innovatorlarning muhim jihati shundaki, ular ijtimoiy dadillik bilan o'z g'oyalarni, ijodiy qarashlarini amaliyotga tadbiiq qiladi. Shu boisdan ham ijodkorlik va tashabbuskorlik orasida ijobiiy bog'lanishlar aniqlangan. Biz bilamizki, innovatsion, kreativ g'oyalar ijodkor shaxsda «mavjud g'oyalar, qarashlarning eskirganligi his qilinganda» yuzaga keladi. Mazkur holat esa innovator shaxsining eski qarashlarini yangisiga transformatsiyalashga tayyor bo'lgan vaziyatda yuzaga keladi. Qaysidir ma'noda, talabadagi ijodkorlik xususiyati mavjud hayot tarzini, jamiyatdagi holatlarni keng ma'noda ilmiy asosda o'zgarishiga tayyorligini ta'minlab beradi. Talabalardagi qiziquvchanlik, ilmiy faktlar ustida ishlash, izlanuvchanlik, kreativ g'oyalarga ta'sirchanlik ularning o'zgarishlarga tez moslashishini, fikrlarining kengligini, tafakkurning proyektiv hamda egiluvchanligini anglatadi. Shu boisdan ham ijodkorlik va o'zgarishlarga tayyorlik orasida ijobiiy bog'lanishlar aniqlangan. Tadqiqot natijalarimizdagi qiziq holat shundaki, talabalardagi ijodkorlik innovatsiyani talab qiluvchi faoliyatni afzal ko'rish mezonii bilan ahamiiyatli bog'lanishga ega bo'lmagan. Mazkur holat talabalardagi innovatsion kompetentlikning yetarli darajada shakllanmaganligi hamda ularda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish ko'nikmalarini asta - sekinlik bilan o'zlashtirayotganligi bilan bevosita bog'liqdir.

Shaxsning innovativ xususiiyatlaridan yana biri bo'lgan «muvaaffaqiiyatga erishishda tavakkal qilish» «tashabbuskorlik» ( $r=0,42$ ;  $p<0,05$ ) va «innovatsiyani talab qiladigan faoliyatni afzal ko'rish» ( $r=0,47$ ;  $p<0,05$ ) bilan ijobiiy bog'lanishlarga ega ekanligi aniqlangan. Talabalarning o'zgarishlarni «omadga intilish yo'li» sifatida idrok etishlari, o'z kuchi va intellektual salohiiyatlariga ishonishlari, har qanday holatda ham ishonch bilan tavakkal qila olishlari, kreativlik, yangi g'oya va tashabbuslarga ochiiqliklari, rang-baranglikka, o'zgarishlarga doim yangi axborotlarni qabul qilib olishga intilishlari tashabbuskorlik sifatleri bilan bevosita bog'liqdir. Talaba o'zining innovatsion g'oyalarni amaliyotga tadbiiq etar ekan, tavakkal qila olish, har qanday holatda ham o'z kuchi va bilimiga ishonch zarur bo'ladi. Mazkur tavakkalchilik tashabbuskorlik bilan uyg'unlashsagina talaba o'z g'oyalarni reallikka ko'chira oladi, yangiliklarni yarata oladi. Talabalardagi tavakkalchilikka moyillik, muvaaffaqiiyatga intilish, tashabbuskorlik hamda innovatsiyani talab qiladigan faoliyatni afzal bilishlarini anglatadi. Bunday toifadagi talabalar doimiiy izlanishni, aqliy faoliyatni talab etuvchi kasblarni, ijodkorlikni talab etuvchi yo'nalishlarni ma'qul ko'rishlarini anglatadi. Odatda bunday talabalar dars mashg'ulotlarida ham o'zlarining faolliklari, nostandart g'oyalari, ta'limiiy keyslarni hal qilishdagi kreativ yondashuvlari bilan ajralib turadilar. Shu boisdan, mazkur mezonlar orasida o'zaro bog'lanishlar aniqlangan. Bu yerda ham qiziq holat aniqlangan, ya'ni muvaaffaqiiyatga erishishda tavakkal qilish o'zgarishga tayyorlik bilan ahamiiyatli bog'lanishlarga ega bo'lmagan. Mazkur holat talabalarning o'z g'oyalarni amaliyotga tadbiiq qilish bilan bog'liq ijtimoiy tajribasining yetarli emasligi bilan bog'liqdir. Talaba kreativ g'oyalar egasi bo'lishi mumkin, biroq u ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga tayyor bo'lishi uchun «ustoz-shogird» tizimida aniq maqsadli va tizimli ishlar yo'lga qo'yish lozim.

Dissertatsion izlanishlarimizning navbatdagi mezoni «kelajakka yoʻnalganlik» «oʻzgarishga tayyorlik» ( $r=0,44$ ;  $p<0,05$ ) bilan ahamiyatli ijobiy bogʻlanishga ega boʻlgan. Talabalarning kelajakka yoʻnalganligini oʻzida mujassamlashtirgan moddiy va gʻoyaviy resurslarni innovatsiyaga safarbar etishga, beqaror, noaniq vaziyatlarda ham muhim qarorlarni qabul qilishga tayyorlik, proyektiv tafakkur, mavhum narsalarga ijobiy va qiziquvchan munosabat, yangi imkoniyatlarni faol izlashga intilishning kuchliligi bilan bogʻliq sifatlar ularni ijtimoiy hayotdagi oʻzgarishlarga psixologik tayyorligini taʼminlashga xizmat qiladi. Chunki, kelajakka yoʻnalgan talabada proyektiv tafakkur, intuitsiya, xayoliy fantaziya, intellektual hislar ustuvor rivojlangan boʻladi. Mazkur sifatlar esa talabalarning oʻz ustida ishlashi, jamiyatdagi yangilikka intilishi hamda oʻzgarishlarni har doim qabul qilishini anglatadi. Tafakkuri keng, kelajakni oldindan tahlil qiladigan talaba mavjud gʻoyalarning bugungi va ertangi holatini anglaydi. Natijada, ularni transformatsiyalash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi va oʻz gʻoyalari orqali jamiyatda, oʻz hayotida ijobiy oʻzgarishlarni yuzaga keltiradi. Bunday oʻzgarishlarga tayyorlik talabaning oʻz xatolaridan «toʻgʻri saboq» chiqara olganligi bilan determinatsiyalashganligi bois, koʻp hollarda amaliy xarakterga ega boʻladi. Bu yerda eʼtibor qaratish lozim boʻlgan yana bir muhim jihat bor. Bu odatda shaxs oʻzning hayotidagi, jamiyatdagi har qanday oʻzgarishlarga bevosita oʻz taʼsirini oʻtkazadi.

Talabalardagi innovatsion gʻoyalarining jamiyatni oʻzgartirishga taʼsiri ham kelajakni prognozlay olish xususiyatiga bogʻliq. Bu yerda asosiy holat talabaning mazkur oʻzgarishlarga psixologik tayyorligi va uni kelajakdagi hodisalarga bogʻliq. Qaysidir maʼnoda talaba innovatsion gʻoyani ilgari surar ekan, albatta mazkur gʻoyaning kelajakdagi hodisalarga taʼsiri hisobga olinadi. Shu boisdan ham mazkur mezonlar orasida ijobiy bogʻlanishlar kuzatilgan. Qolgan ikki mezon, yaʼni tashabbuskorlik va innovatsiyani talab qiladigan faoliyatni afzal koʻrish bilan kelajakka yoʻnalganlik orasida ahamiyatli bogʻlanishlar aniqlanmadi.

Dissertatsion izlanishlarimizning navbatdagi bosqichida tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, talabalarning innovatsion faoliyatga moyilligini koʻrsatib beruvchi shaxs xususiyatlarini ularning innovatsion kompetentlik darajalari bilan bogʻliqligini aniqlab oldik. Buning uchun N.M.Lebedeva, A.N.Tatarko tomonidan ishlab chiqilgan «Shaxsning innovatsion xususiyati va oʻz-oʻzini baholash darajasini aniqlash» hamda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan «Talabalarda innovatsion kompetentlik darajasini aniqlash» soʻrovnomalaridan olingan natijalarning oʻzaro bogʻliqligini tahlil qildik.

### 5-jadval.

#### Talabalarning innovatsion xususiyatlari va innovatsion kompetentligi orasidagi oʻzaro bogʻliqlik (n=390)

| Mezonlar                   | Ijodkorlik | Muvaffaqiyatga erishishga tavakkal qilish | Kelajakka yoʻnalganlik |
|----------------------------|------------|---|------------------------|
| Fikrlashning tanqidiyligi  | 0,46*      | 0,41*                                     | 0,06                   |
| Tasavvur qilish qobiliyati | 0,33*      | 0,04                                      | 0,38*                  |
| Amaliy fikrlash uslubi     | 0,01       | 0,32*                                     | 0,12                   |
| Konvergent fikrlash        | 0,13       | 0,30*                                     | 0,14                   |

Izoh: \* $p<0,05$ ; \*\* $p<0,01$ .

Ilmiy izlanishlarimiz davomida olingan natijalarga ko'ra, talabalarning innovativ sifatlaridan «ijodkorlik» «fikrlashning tanqidiyligi» ( $r=0,46$ ;  $p\leq 0,05$ ), «tasavvur qilish qobiliyati» ( $r=0,33$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ahamiyatli ijobiy bog'lanishlarga ega ekanligi qayd etildi. Talabalarning ijodkorligi an'anaviy g'oyalari, qarashlar, faoliyat uslubidan tashqariga chiqarilishi, yangicha ilmiy-amaliy g'oyalarni yaratish bilan belgilansa, fikrlashning tanqidiyligi muammoni aniq maqsad yo'lida tahlil qilish va sinchkovlik bilan ko'rib chiqish, boshqalar ko'rmagan tomonini «shubha ostiga olib ko'rish», tanqidiy tahlil qilish qobiliyati bilan belgilanadi. Odatda talabalar mavjud holat va muammoni tanqidiy tahlil qilsalargina rivojlanishi, o'zgarishi hamda muammoga yangicha qarashi mumkin. Chunki, fikrlashning tanqidiyligi negizida ma'lumotlarni har tomonlama tahlil qilish asosida xulosalarni shakllantirish, qolaversa, mavjud g'oyalarni «shubha ostiga olib ko'rish» ko'nikmasi yotadi. Bu esa talabani kuzatuvchan, qiziquvchan bo'lishi, mantiq va tahlilga asoslangan ratsional qarorlarni qabul qilishi, voqelikni adekvat baholashi, tafakkur egiluvchanligi, o'z xato va kamchiliklarini qabul qilishga tayyorligi faoliyatda namoyon bo'lishiga olib keladi. Mazkur jihatlari orqali talabaning tanqidiy fikrlashi yangi g'oya, fikr, qarashlarga (hattoki o'z qarashlariga zid bo'lsa ham) ochiqlikni, kreativlikni, inqirozli va mavhum vaziyatlarga nisbatan barqarorlikni, axborotlarni qayta ishlashdagi tezkorlik va original tafakkurni yuzaga chiqishiga imkon yaratadi. Shu jihatlari talabalardagi ijodkorlik va fikrlashning tanqidiyligi orasidagi ijobiy bog'lanishlarni asoslab beradi.

Talabalarning innovatsion kompetentligini ta'minlab beruvchi shaxs xususiyatlaridan biri bo'lgan ijodkorlik tasavvur qilish bilan ham ijobiy bog'lanishlarga egadir. Chunki, tasavvur qilish qobiliyati talabalarning avval idrok etilgan yoki umuman reallikda mavjud bo'lmagan narsa va hodisalar to'g'risida spontan yoxud aniq bir maqsadga bo'ysundirilgan holda yangi obrazlarini xayolan yaratish jarayoni hisoblanadi. Talabalarning tasavvur qilish qobiliyati aslida divergent tafakkur bilan uzviy bog'liq. Mazkur holatda talabalarning ijodkorligi turli g'oyalarni sintezlash orqali yangicha qarashlarni yaratishda evristik transduksiya, reintegratsiya, transformatsiyani samarali qo'llashi bilan belgilanadi. Bu yerda talabalarning mavjud g'oyalarni tasavvuriy obrazlar orqali yangicha qarashlar bilan boyitishi (evristik transduksiya), kreativ jihatdan o'zgartirishi (transformatsiya), real hayotga tadbiiq etishi (reintegratsiya) bilan bog'liq xususiyatlari innovatsion faoliyatning muhim jihati hisoblanadi. Shu boisdan, mazkur ikki mezon orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlangan. Talabalarning ijodkorligi amaliy fikrlash uslubini va konvergent tafakkur bilan ahamiyatli bog'lanishlarga ega bo'lmagan. Chunki, talabalarning innovatsion kompetentligidagi ijodiylikda noan'anaviy qarashlar ustun bo'lib, faqatgina amaliy tafakkur emas, balki uning nazariy tafakkur bilan integrativ namoyon bo'ladi.

Dissertatsion izlanishlarimizning navbatdagi mezoni «muvaffaqiyatga erishishga tavakkal qilish» «fikrlashning tanqidiyligi» ( $r=0,41$ ;  $p\leq 0,05$ ), «amaliy fikrlash uslubini» ( $r=0,32$ ;  $p\leq 0,05$ ), «konvergent fikrlash» ( $r=0,30$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ahamiyatli ijobiy bog'lanishlarga ega. Yuqorida talabalardagi fikrlashning tanqidiyligini ijodkorlik bilan bog'liqligi xususida to'xtalib o'tgan edik. Endi esa fikrlashning tanqidiyligini muvaffaqiyatga erishishda tavakkal qilish bilan

bog'liqligini izohlaymiz. Aslida tanqidiy fikrlash talabning ilmiy va kasbiy faoliyatidagi soft skills, ya'ni «shaxsiy fazilatlar» qatoriga kiradi va qabul qilingan axborotni tahlil qilish, baholash asosida mantiqiy qaror qabul qilish uchun dalillarni saralash imkonini beradi. Biz bilamizki, bu tarzda fikrlash talabalarni turli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishiga, o'ziga ishonch bilan tavakkal qilishiga, muvaffaqiyatga intilish motivlarini kuchaytirishga olib keladi.

Tanqidiy fikrlashi kuchli bo'lgan talaba noaniq, mavhum vaziyatlarda, kreativ g'oyalarga zarurat sezilgan vaqtda o'zida mavjud ma'lumotlar asosida tavakkal qila oladi. Shu boisdan, ikki mezon orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlangan. Navbatdagi omillar «muvaffaqiyatga erishishga tavakkal qilish» bilan «amaliy fikrlash uslubi» orasidagi bog'liqlikdir. Talabalardagi amaliy fikrlash uslubi qisqa vaqt ichida maqsad qo'yish, rejalar va loyihalar ishlab chiqishda bevosita tafakkur bilan bog'liq. Odatda amaliy fikrlash uslubi talabning shaxsiy tajribasiga asoslanadi. Qolaversa, amaliy tafakkur shaxsning stressga chidamliligini, maqsad va rejalarini aniq, yaqqol obrazga egaligini ta'minlab beradi. Amaliy fikrlash uslubida nazariy faktlar va dalillar kam miqdorda bo'lib, ko'p hollarda talabning ijtimoiy tajribasidagi xulosalarni o'zida aks ettiradi. Aksariyat hollarda amaliy tafakkur egalari ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda tavakkalchi bo'ladi. Chunki, ijtimoiy loyihalar talabalardan shaxsiy tajribaga asoslangan g'oyalarni ko'proq talab etadi. Shu boisdan, mazkur ikki mezon orasida ijobiy bog'lanishlar kuzatilgan. Ilmiy izlanishlarimizda muvaffaqiyatga erishishga tavakkal qilish bilan ahamiyatli bog'lanishlarni ko'rsatgan navbatdagi mezon konvergent fikrlashdir.

Talabalarining konvergent fikrlashi tahlillarga asoslangan qaror qabul qilishida ko'rinadi. Misol uchun, talaba bir nechta g'oyalarni ko'rib chiqadi, tahlil qiladi, ularning jamiyat uchun foyda va zararini ko'rib chiqqandan so'ng, yangi, original, o'ziga xos qarorni qabul qiladi. Mazkur qarorni qabul qilish uchun esa talabadan tavakkal qila olish ko'nikmasi talab etiladi. Talabning konvergent fikrlashi ko'proq aniq standartlarga bo'ysunadi. Shunga qaramay, qaror qabul qilishda talabadan muvaffaqiyatga intilish uchun tavakkal qila olish kerak. Shu boisdan, ikki mezon orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlangan. Talabalardagi muvaffaqiyatga erishish uchun tavakkal qilish tasavvur qila olish qobiliyati bilan ahamiyatli bog'lanishlarga ega bo'lmagan. Mazkur holat talabalardagi yangi obrazlarni yaratish uchun talab etiladigan tasavvur qilish qobiliyati ijtimoiy tajribaning yetarli emasligi tufayli muvaffaqiyatga intilish uchun tavakkal qilish ko'nikmasi bilan uyg'unlashmaganligini anglatadi.

Talabalar innovatsion xususiyatining navbatdagisi bo'lgan «kelajakka yo'nalganlik» «tasavvur qilish qobiliyati» ( $r=0,38$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ijobiy bog'lanishlarga ega ekanligi kuzatilgan. Shaxsning tasavvur qilish qobiliyatida yangi obrazlar bir necha mexanizmlar asosida yaratiladi. Aynan tasavvurlar olamining kengligi talabalarga voqea hodisalarning kelajakdagi yangi hissiy-ko'rgazmali obrazlarini dastlab g'oyaviy tarzda yaratish imkonini beradi. Bu yerda talabalar mavjud g'oyaning kelajakdagi transformatsion holatini o'zida aks ettirgan yangi g'oya va innovatsion kreativ qarashlarni taklif qilish uchun tasavvurlar olami keng, tafakkuri egiluvchan, original va aniqlikka asoslangan bo'lishi lozim. Talabning bugungi tasavvurlar olamida aks etgan g'oyalar kelajakka yo'nalgan

bo'lishi tabiiy holatdir. Bugun tasavvurlarda g'oya ko'rinishi bo'lgan fikrlar ertaga real hayotga ko'chadi, reintegratsiyalashadi. Shu boisdan, ikki mezon orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlangan. Talabaning innovatsion xususiyatlaridan hisoblangan kelajakka yo'nalganlik fikrlashning tanqidiyligi, amaliy fikrlash uslubi va konvergent tafakkur bilan ahamiyatli bog'lanishlarga ega bo'lmagan. Buning asosiy sabablaridan biri, talabalarning innovatsion kompetentligi rivojlanish bosqichida ekanligidir.

Dissertatsion izlanishlarimizning navbatdagi bosqichida tadqiqot vazifalaridan kelib chiqqan holda talabalarning innovatsion xususiyatlari bilan tafakkur uslublari orasidagi bog'liqlik aniqlandi. Chunki, tafakkur uslubi muammolarni aniqlash, bahslashish, ilmiy natijalarni taqdim etish, munozaralar o'tkazishni o'zida mujassamlashtiradi, shu bilan bir qatorda yangi bilimlarning umuminsoniy bilimlar arsenaliga kirishini tartibga soladi. Boshqacha aytganda, shaxs tafakkur qilish uslubiga qarab innovatsion g'oyalarga moyilligi aniqlandi. Shu nuqtai nazarni asoslash hamda oldimizga qo'ygan vazifalarni hal qilish uchun N.M.Lebedeva, A.N.Tatarko tomonidan ishlab chiqilgan «Shaxsning innovatsion xususiyati va o'z-o'zini baholash darajasini aniqlash» hamda E.G'oziyev tomonidan moslashtirilgan A.A.Alekseyeva va L.A.Gromovalarning «Tafakkur uslubini aniqlash» so'rovnomalaridan olingan natijalarning o'zaro bog'liqlik jihatlarini tahlil qildik. Natijalar quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

#### 6-jadval.

#### Talabalarning innovatsion xususiyatlari hamda tafakkur uslublari orasidagi o'zaro bog'liqlik (n=390)

| Mezonlar      | Ijodkorlik | Muvaffaqiyatga erishishga tavakkal qilish | Kelajakka yo'nalganlik |
|---------------|------------|---|------------------------|
| Sintetiklik   | 0,29*      | -0,10                                     | 0,09                   |
| Idealistiklik | -0,15      | 0,21                                      | 0,42*                  |
| Pragmatiklik  | 0,09       | 0,41*                                     | 0,04                   |
| Analizatorlik | 0,32*      | 0,03                                      | 0,40*                  |
| Realistik     | 0,07       | 0,33*                                     | 0,22                   |

Izoh: \*p<0,05; \*\*p<0,01

Talabalardagi sintetik tafakkurning ustunligini o'ziyoq fikrlashdagi o'ziga xoslikni, ijodiylikni anglatadi. Shu boisdan ijodiylik va sintetik tafakkur orasida ijobiy bog'lanishlar kuzatilgan. Navbatdagi natija innovatsion xususiyatning muhim mezoni bo'lgan ijodiylikning analizatorlik tafakkur uslubi bilan bog'liq. Mazkur korrelyatsion bog'lanishlar muammoni tizimli va har tomonlama ko'rib chiqishga intilishni, muammolarni hal qilishning mantiqiy, uslubiy, puxta (tafsilotga e'tibor qaratgan holda)ligiga e'tibor qaratish, g'oyalarni kichik elementlarigacha asoslashga urinish namoyon bo'ladi. Biror g'oyani taklif qilishda avval, analizatorlik tafakkur uslubi vakillari puxta asosida va imkoni boricha ko'proq ma'lumot, obyektiv faktlar va ilmiy nazariyalarni to'plashga intiladi. Ular dunyoni mantiqiy, oqilona, tartibli va

prognostik tahlil asosida idrok etadi va shuning uchun ma'lum bir vaziyatning yechimini ta'minlay oladigan, oqilona asoslanishi mumkin bo'lgan formula, usul yoki tizimni izlashga moyil bo'lishadi. Bu esa faoliyatga ijodiy, kreativ yondashuvni o'ziga xos individual holati hisoblanadi.

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, analizatorlik tafakkur uslubi egalarining ijodiyliigi har bir masalaga tahliliy pozitsiyada yondashiladi. Bu esa innovatsion kompetentlikning muhim komponenti hisoblanadi. Talabalardagi ijodkorlik pragmatik, idealistik, realistik tafakkur uslublari bilan ahamiyatli bog'lanishlarga ega bo'lmagan.

Talabalarining «muvaffaqiyatga erishishga tavakkal qilish» xususiyati «pragmatiklik» ( $r=0,41$ ;  $p\leq 0,05$ ) va «realistik» ( $r=0,33$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ahamiyatli ijobiy bog'lanishlarga ega ekanligi qayd etildi. Talabalardagi muvaffaqiyatga erishish uchun tavakkal qilishga intilishi ularning to'g'ridan-to'g'ri shaxsiy tajribaga, sohaga doir ma'lumotlardan foydalanish imkon qadar tez va aniq natijalarni qo'lga kiritishga yo'nalganligi bilan bevosita bog'liqdir. Pragmatik tafakkur egalari har bir jarayondan yaxshi foyda olishga intiladilar. Pragmatistlarning xatti-harakati yuzaki va tartibsiz bo'lib tuyulishi mumkin, ammo ular atrof-muhit tasodiflarga to'laligini hisobga olib, doim «Bugun biz bu ishni qilib ko'ramiz, natijasi tavakkal...» shiori ostida o'z faoliyatlarini tashkil qiladi. Odatda bunday fikrlash tipi shaxsdan ravon tafakkurni, g'oyalarning rang-barangligini talab etadi. Chunki pragmatik tafakkur egalari bir variant samara bermasa, tezda ikkinchi variantlarni tanlashadi. Bunday holatlar shaxsdan tavakkal qilishni talab etadi. Natijalarimizning o'ziga xos tomoni shundaki muvaffaqiyatga erishish uchun tavakkal qilish realistik tafakkur bilan ham ijobiy bog'lanishga ega bo'lgan. Realistlar pragmatiklardan farqli ravishda aniq va real faktlar asosida fikr yuritishadi va shunga muvofiq qaror qabul qilishadi.

Axborotlarda aniqlik yetishmagan holatda realistik tafakkur egalari murakkab qiyinchilikka uchrashadi. Olingan natijalarning qiziq tomoni shundaki, realistik tafakkur egalari ham pragmatiklar singari dalillarga asoslanib, ravon va rang-barang fikr egalari. Ularning g'oyalari asosan aniq dalil va ma'lumotlarga tayanadi hamda ilmiy prognostik xarakterga ega bo'ladi. Shu boisdan ham muvaffaqiyatga erishish uchun tavakkal qilish va realistik tafakkur o'rtasida ijobiy bog'lanishlar kuzatilgan. Innovatsion xususiyatlarning muhimi hisoblangan muvaffaqiyatga erishish uchun tavakkal qilish sintetik, idealistik, analizatorlik tafakkur uslubi bilan ahamiyatli bog'lanishlarga ega bo'lmagan.

Navbatdagi «kelajakka yo'nalganlik» xususiyati «idealistik» ( $r=0,42$ ;  $p\leq 0,05$ ) va «analizatorlik» ( $r=0,40$ ;  $p\leq 0,05$ ) omillari bilan ijobiy bog'lanishga ega ekanligi kuzatildi. Idealistik tafakkur egalari muammolarni global va intuitiv tarzda baholash bilan ajralib turadi. Idealistlarda maqsad, ehtiyojlar, insoniy qadriyatlar va axloqiy masalalarga yuqori qiziqish kuzatiladi. Ular qaror qabul qilish jarayonida subyektiv va ijtimoiy omillarni hisobga olib, qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga, turli pozitsiyalar o'rtasidagi o'xshashliklarni kuchaytirishga intiladilar. Shuningdek, ular turli g'oyalar va takliflarni osongina va to'siqlarsiz qabul qilib, his-tuyg'ular va boshqa subyektiv jihatlar bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli hal qiladi.

Shaxs innovatsion xususiyatining mezoni bo'lgan kelajakka yo'nalganlik sifati

ham idealistik tipda fikrlovchilarda aynan ijtimoiy munosabatlardagi keyslarni hal qilishda vaziyatga nostandart yondashishlari va integratsiyalashishida ko‘rinadi. Boshqacha aytganda, idealistlardagi prognostik tafakkur xususiyati ularni kelajakni prognozlash asosida kreativ qarorlar qabul qilishiga asos bo‘ladi. Shu boisdan, mazkur ikki mezon orasida ijobiy bog‘lanishlar aniqlangan. Bundan tashqari innovatsion xususiyat hisoblangan kelajakka yo‘nalganlik analizatorlik tafakkur tipi bilan ham ijobiy bog‘lanishga ega. Bunda talabalar har bir ma‘lumotni kichik detallarigacha tahlil qiladi, aniq faktlarni ko‘rib chiqadi, keyingina muayyan bir xulosalarga kelinadi. Shu orqali talaba o‘zini innovatsion faoliyatga tayyorligini ko‘rsatadi. Chunki, talaba qabul qilayotgan ma‘lumotlarni analiz, sintez qilsa, sinchkovlik bilan tahlillarni amalga oshirsa, u albatta yangi narsalarni ixtiro qilishi, yangi konsepsiyalarni yaratishi mumkin. Shu boisdan, mazkur mezonlar orasida ijobiy bog‘lanishlar aniqlangan. Talabalardagi kelajakka yo‘nalganlik sifati sintetik, pragmatik, realistik tafakkur uslubi bilan ahamiyatli bog‘lanishlarga ega bo‘lmagan.

Dissertatsiya ishimizdan ko‘zlangan maqsadga muvofiq navbatdagi vazifalarimiz talabalarining innovatsion xususiyatlarini shaxs xulq-atvorini va o‘zini-o‘zi boshqarish uslubi bilan bog‘liqligini o‘rganishdir. Chunki, har qanday faoliyatning muvaffaqiyatini ta‘minlovchi omillardan biri – o‘z xulq-atvorini boshqarishi va nazorat qilishidir. Inson o‘zini boshqarar ekan, har qanday holatda ham o‘z ichki imkoniyatlarini konstruktiv tarzda safarbar eta oladi. Shu boisdan biz sinaluvchilarimizda N.M.Lebedeva, A.N.Tatarko tomonidan ishlab chiqilgan «Shaxsning innovatsion xususiyati va o‘z-o‘zini baholash darajasini aniqlash» hamda V.I.Morosanovanning «Xulq-atvorni o‘z-o‘zini boshqarish uslubi» so‘rovnomalarini o‘tkazib oldik va o‘zaro bog‘liqlik jihatlarini tahlil qildik. Natijalar quyidagi 7-jadvalda keltirilgan.

#### 7-jadval.

#### Talabalarining innovatsion xususiyatlari hamda xulq-atvorda o‘zini o‘zi boshqarish xususiyatlari orasidagi o‘zaro bog‘liqlik (n=390)

| Mezonlar             | Ijodkorlik | Muvaffaqiyatga erishishga tavakkal qilish | Kelajakka yo‘nalganlik |
|----------------------|------------|---|------------------------|
| Rejalashtirish       | 0,49*      | 0,15                                      | 0,44*                  |
| Natijalarni baholash | 0,03       | 0,33*                                     | 0,12                   |
| Moslashuvchanlik     | 0,08       | 0,30*                                     | 0,15                   |
| Mustaqillik          | 0,40*      | -0,12                                     | 0,36*                  |

Izoh: \*p<0,05; \*\*p<0,01.

Dissertatsion tadqiqotimizdan olingan natijalarga ko‘ra, talabalardagi «ijodkorlik» sifati «rejalashtirish» (r=0,49; p≤0,05) hamda «mustaqillik» (r=0,40; p≤0,05) omillari bilan ijobiy bog‘lanishlarga ega bo‘lganligi qayd etildi. Talabalarining o‘z xulq-atvorini hamda o‘zini boshqarish uslubidagi rejalashtirish faoliyatni aniq, anglangan maqsad sari rejalashtirishni nazarda tutadi. Bu yerda rejalar aniq, kichik detallargacha e‘tibor qaratilgan, iyerarxik xarakterda, barqaror

va mustaqil shakllantirilgan maqsadga egaligi bilan ajralib turadi. Innovatsion kompetentlikni belgilovchi muhim xususiyat hisoblangan ijodkorlik esa ana shu aniq rejalarini tuzishda muhim o'ringa ega. Masalan, talaba o'zining innovatsion g'oyalari amalga tadbiiq etar ekan, unga real rejalar kerak bo'ladi. Mazkur ikki jihatning o'zaro bog'liqligi esa, talabalar o'z innovatsion g'oyalari, kreativ qarashlarini amalga tadbiiq etishda bosqichma-bosqich, har bir detallarga e'tibor bergan holda rejalashtirishlaridan dalolat beradi.

Natijalardagi mustaqillikning ijodkorlik bilan bog'liqligi ham o'ziga xos xususiyatga ega. Chunki mustaqillik boshqaruvdagi avtonomlikni anglatadi. Mazkur korrelyatsion bog'lanishlar talabalarning o'z innovatsion faoliyatini tashkil qilishlaridagi faolliklari, harakatlar strategiyasini mustaqil rejalashtirishlari, faoliyat natijalarini nazorat qilishlari, tahlil qilib, doimiy baholab borishlarini anglatadi. Bunda talabalardagi irodaviy sifatlar bilan bir qatorda mustaqil fikrlash qobiliyati ham muhim o'ringa ega bo'ladi. Chunki, innovatsion faoliyat shaxsdan irodaviy sifatlarini, o'zini boshqarish va nazorat qilishni hamda mustaqil fikrlashni talab qiladi. Shu boisdan ikki mezon orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlangan. Talabalardagi ijodkorlik natijalarni baholash va moslashuvchanlik bilan ahamiyatli bog'lanishlarga ega bo'lmagan.

Talabalarning «muvaqqiyatga erishishga tavakkal qilish» xususiyati «natijalarni baholash» ( $r=0,33$ ;  $p\leq 0,05$ ) va «moslashuvchanlik» ( $r=0,30$ ;  $p\leq 0,05$ ) omillari bilan ahamiyatli bog'lanishlarga ega bo'lgan. Innovator talaba o'z faoliyati natijasini doimo baholab borishi lozim. Chunki faoliyat natijalarini baholash shaxsning individual taraqqiyotini belgilaydi. Talabalarning o'z faoliyatini natijasini baholashi adekvat o'ziga beradigan baho egasi ekanligini bildiradi. O'ziga adekvat baho beradigan talabalar esa doim muvaqqiyatga intiladigan hamda ijtimoiy va psixologik jihatdan barqaror bo'lishadi.

Talaba o'z faoliyatini adekvat baholasa, u o'z xatolaridan xulosa chiqaradi, kamchiliklari ustida ishlaydi, o'z g'oyalari takomillashtirib, o'zgaruvchan sharoitga tez moslashadi, tafakkur egiluvchanligi bilan ajralib turib, o'z qarashlarini reallikda amalga oshirish uchun tavakkal qila oladi. Shu boisdan, ikki mezon orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlangan. Bundan tashqari, muvaqqiyatga erishish uchun tavakkal qiluvchi talabalarning muhim jihatlaridan biri ularning moslashuvchanligidir. Odatda moslashuvchanlik talabalarning o'zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlarga tez adaptatsiyalashishini anglatadi. Bunday talabalar o'z qarashlariga zid bo'lgan g'oyalarni ham tez o'zlashtiradi, atrofdagilarning fikrlariga nisbatan tolerant munosabatda bo'lishadi. Shu boisdan, mazkur mezonlar orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlangan. Talabalardagi muvaqqiyatga erishishga tavakkal qilish rejalashtirish va mustaqillik bilan ahamiyatli bog'lanishlarga ega bo'lmagan.

Navbatdagi mezon «kelajakka yo'nalganlik» «rejalashtirish» ( $r=0,44$ ;  $p\leq 0,05$ ) va «mustaqillik» ( $r=0,36$ ;  $p\leq 0,05$ ) omillari bilan ijobiy bog'lanishlarga ega ekanligi qayd etildi. Innovatsion kompetentlikni ta'minlovchi kelajakka yo'nalganlik xususiyatining rejalashtirish bilan bog'liqligi talabalarning o'z ilmiy, ijodiy faoliyatini aniq, istiqboldagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda tizimlashtirishidan dalolat beradi. Talabaning innovatsion faoliyati istiqboldagi rejalarini amalga tadbiiq etishga yo'nalganligi bilan xarakterlanadi. Shu boisdan mazkur mezonlar orasida

ijobiy bogʻlanishlar kuzatilgan. Shaxsning oʻz xulq-atvorini nazorat qilishi va kelajakni prognozlay olish qobiliyati bilan uygʻun namoyon boʻladi. Chunki talaba innovatsion gʻoyalarni amalga tadbqiq etish bilan bogʻliq qarorlarni qabul qilishda oʻz oldiga aniq, anglangan va ijtimoiy ehtiyojlarga boʻysundirilgan maqsadlarni belgilaydi. Bunda esa talabaning mustaqil oʻz faoliyatini tashkil etish strategiyasi, monitoring olib borish tizimini prognozlay olishi muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, mazkur ikki mezon orasida ham ijobiy bogʻlanishlar qayd etilgan. Talabalardagi kelajakka yoʻnalganlik natijalarni baholash va moslashuvchanlik bilan ahamiyatli bogʻlanishlarga ega boʻlmagan. Xulosa qiladigan boʻlsak, talabalarning innovatsion kompetentligini belgilab beruvchi shaxs xususiyatlari xulq-atvorni boshqarish uslubiga integrativ rivojlanishi ilmiy izlanishlarimizda oʻz tasdigʻini topgan.

Dissertatsiyaning **«Talabalar innovatsion kompetentligini rivojlantirishning amaliy imkoniyatlari»** deb nomlangan toʻrtinchi bobida talabalar innovatsion kompetentligini rivojlantirishning ilmiy uslubiy asoslari va tadqiqot obyektlaridan olingan natijalarning qiyosiy tahlili keltirilgan. Talabalarda innovatsion kompetentlikni rivojlantiruvchi model uch bosqichda amalga oshirildi. Jumladan, tayyorgarlik bosqichida - talabalarning intellektual faoliyatini takomillashtirish, mustaqil fikr yuritish koʻnikmalarini oshirish, shuningdek, yangilikni idrok qilishga innovatsion tayyorlik shakllantirilishi, asosiy bosqichda – talabalarning oʻquv faoliyati jarayonida innovatsion kompetentlik rivojlantirishga erishildi. Yakunlovchi bosqichda - oliy taʼlim muassasalarida – talabalarda qiziquvchanlik, muvafaqqiyatga intilish hamda innovatsion kompetentlik darajasi mustahkamlanadi (1-rasm).

Talabalarda innovatsion kompetentlikning oʻziga xos komponentlarini rivojlantirishga qaratilgan mashgʻulotlarimizni quyidagi mexanizm asosida olib bordik:

- talabalarning innovatsion kompetentligi, axborotlarni kognitiv qayta ishlash, virtual maʼlumotlardan kreativ maqsadda foydalanish, original obrazlar senzitivlik bilan bogʻliq kompetentlikni aniqlash uchun tushunchalar tizimini aniqlashtirish;


- talabalarning taʼlim faoliyatida namoyon boʻladigan xususiyatlari hamda axborotlar bilan ishlash, gʻoyalarni evrestik boshqarish xususiyatlarini tahlil qilishga oʻrgatish uchun refleksiya (oʻz-oʻzini anglash, oʻziga adekvat baho va oʻz-oʻzini tahlil qilish) darajasini oshirish;

- talabalarning faoliyatda oʻz individual uslubiga ega ekanligini taʼlim jarayoniga bogʻliq jihatlaridan foydalangan holda oʻziga xos tafakkur uslubini shakllantirish;

- talabalarda innovatsion kompetentlikning yuqori darajada namoyon boʻlishini taʼminlovchi individual xarakterga ega boʻlgan oʻz xulqini boshqarish jihatlarini rivojlantirish uchun individual refleksiyaning aniqlashtirish;

- talabalarning axborotlarni tahlil qilishga oid koʻnikmalarni oshirish uchun hamkorlikdagi faoliyat motivini rivojlantirish;

- rivojlantiruvchi dastur natijasini samaradorligini taʼminlash uchun talabalarda katarsis holatiga erishish lozim.



**1-rasm. Talabalarda innovatsion kompetentlikni rivojlantiruvchi model**

Talabalarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish maqsadida biz Buxoro, Qarshi davlat universitetlari va Navoiy pedagogika institutida tahsil olayotgan talabalaridan jami 390 nafar, shulardan, 2-bosqich 210 nafar, 4-bosqichdan 180 nafar talabalar tanlab olindi. Biz innovatsion kompetentligi yetarli

shakllanmagan jami respondentlarning 170 nafarini tajriba guruhiga saralab oldik. Bunda rivojlantiruvchi dasturni qo‘llash uchun talabalar 6 ta kichik guruhga ajratib olindi. Har bir guruhda 25-30 nafardan talaba ishtirok etdi. Tadqiqot ishtirokchilarining 220 nafarini esa nazorat guruhiga jalb qilindi. Rivojlantiruvchi trening dasturi muayyan darajadagi psixologik tamoyillarga asoslangan mashg‘ulotlar, o‘yinlar individual va guruhiy suhbatlar asosida olib borildi. Rivojlantiruvchi mashg‘ulotlardan so‘ng nazorat tajribasi o‘tkazildi va aniqlovchi tajriba natijalari bilan taqqoslandi. Dastlab, «Talabalarda innovatsion kompetentlik darajasini aniqlash so‘rovnomasi» metodika orqali olingan natijalar tahliliga o‘tamiz.

### 8 – jadval.

#### «Talabalarda innovatsion kompetentlik darajasini aniqlash so‘rovnomasi» metodika orqali olingan natijalarining qiyosiy tahlili (n=390)

| №  | Komponentlar               | Guruhlar               | Aniqlovchi tajriba |     | Nazorat tajriba |     | Farqlanish |      |
|----|----------------------------|------------------------|--------------------|-----|-----------------|-----|------------|------|
